

Berdikulov Chingiz Dusmuradovich,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi
Email: berdiqulovchingiz1989@gmail.com

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA AXLOQIY ME'YORLAR VA MA'NAVIY KOLLABORATSIYA

***Annotatsiya.** Axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda jamiyat hayotining barcha sohalarida axloqiy va ma'naviy masalalarning mazmuni yangicha tus olmoqda. Ushbu maqolada axborotlashgan muhitning inson xulq-atvori, dunyoqarashi va ijtimoiy mas'uliyatiga ko'rsatayotgan ta'siri yoritiladi. Raqamli makon sharoitida axloqiy me'yorlarning saqlanishi, ularning moslashuvi hamda ma'naviy kollaboratsiyaning shakllanish jarayonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada jamiyat a'zolari o'rtasidagi ma'naviy hamkorlik axborot almashinuvi orqali qanday rivojlanayotgani va bu jarayon ijtimoiy barqarorlikka qanday ta'sir ko'rsatayotgani asoslab beriladi.*

***Kalit so'zlar:** axborotlashuv, jamiyat va axloq, ma'naviy hamkorlik, raqamli muhit, axloqiy ong, ijtimoiy qadriyatlar, axborot mas'uliyati, ma'naviy taraqqiyot.*

Бердикулов Чингиз Дусмурадович,
Независимый исследователь Самаркандский государственный
университет имени Шарофа Рашидова
E-mail: berdiqulovchingiz1989@gmail.com

НРАВСТВЕННЫЕ НОРМЫ И ДУХОВНАЯ КОЛЛАБОРАЦИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ

***Аннотация.** В современную эпоху интенсивного развития информационных технологий нравственно-духовные аспекты общественного бытия претерпевают существенные изменения. В статье анализируется воздействие информационно насыщенной среды на*

поведенческие модели личности, её ценностные ориентации и степень социальной ответственности. Рассматриваются особенности функционирования и адаптации нравственных норм в условиях цифрового пространства, а также закономерности формирования духовной коллаборации как новой формы общественного взаимодействия. Отдельное внимание уделяется роли информационного обмена в развитии духовного сотрудничества между членами общества и его значению для поддержания социальной устойчивости. Сделанные выводы позволяют обосновать актуальность укрепления нравственного сознания и ответственного взаимодействия в условиях информационного общества.

Ключевые слова: информатизация, общество и нравственность, духовное сотрудничество, цифровая среда, нравственное сознание, социальные ценности, информационная ответственность, духовное развитие.

**Berdikulov Chingiz Dusmuratovich,
Independent researcher,
Samarkand State University named after Sh.Rashidov
E-mail: berdikulovchingiz1989@gmail.com**

ETHICAL NORMS AND SPIRITUAL COLLABORATION IN AN INFORMATION SOCIETY

Abstract. The accelerated development of information technologies has fundamentally reshaped the moral and spiritual dimensions of contemporary social life. This study investigates how an information-intensive environment influences individual behavior, value systems, and perceptions of social responsibility. The paper focuses on the transformation and contextual adaptation of moral norms within digital communication spaces, highlighting their role in regulating social interaction. In addition, the research conceptualizes spiritual collaboration as an emerging form of collective engagement grounded in shared ethical orientations and communicative practices. Special attention is paid to the function of information exchange in facilitating moral cooperation and reinforcing social

cohesion. The findings contribute to a deeper understanding of the mechanisms through which moral consciousness and responsible interaction support social sustainability in the information society.

Keywords: information society, moral norms, spiritual collaboration, digital communication, moral consciousness, social responsibility, ethical values, social sustainability.

Kirish (Introduction)

Axborotlashgan jamiyat har bir davlatning milliy axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy me'yorlariga mos keladi, ya'ni jamiyat a'zolari uchun barqaror, qulay ma'naviy muhit yaratadi. Axborotlashgan jamiyatda mavjud axloqiy me'yorlarga barcha fuqarolar rioya qilishini ta'minlash O'zbekistondagi ma'naviy hamkorlikning muhim vazifasidir, shunday qilib axborotlashgan jamiyatning roli yanada kuchayadi. Axborotlashgan jamiyat ikki asosiy xususiyatga ega. Birinchi xususiyat, axborot texnologiyalari barcha sohalarda inson ongi va ijtimoiy munosabatlarga chuqur kirib boradi. Ikkinchi xususiyat, axborotlashuv jarayonlari milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashadi va har bir insonning yondashuvini talab qiladi. Mazkur jihatlar O'zbekistonda davlat va jamiyat institutlari o'rtasidagi ma'naviy hamkorlik orqali axloqiy barqarorlikni ta'minlashga asoslanadi. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Ilg'or texnologiyalarning faol joriy qilinayotgani va global axborot-kommunikatsiya makoni taraqqiy etayotgani barcha jarayonlarni jadal va tez o'zgartirmoqda, qit'alar, mintaqalar, davlatlar va biznes darajasidagi hamkorlikning yangi shakllarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda"[1,327]. Bularning inson falsafiy tafakkuri orqali analiz va sintez qilinishini amalga oshirishda o'ta hushyorlik va mantiqiylikni izchillik bilan tanlash muhim strategiya sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review)

Mamlakatimiz olimlari tomonidan axborotlashgan jamiyatda axloqiy me'yorlar va ma'naviy kollaboratsiya sohasida yuzaga kelayotgan muammolarni tadqiq etishga qaratilgan qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Jumladan, N.

Jo'rayev, Q.Nazarov, M.A.Nurmatova, N.M. Matkarimova, U.Q. Tilavova, A.I.Tulyayev, J.Dj.Utegenova hamda T.E.Ergashev kabi professor-olimlarning tadqiqotlarini keltirish mumkin. Ushbu tadqiqotlarda axborotlashuv jarayonining shaxs ma'naviy dunyosiga ta'siri, jamiyatda axloqiy qadriyatlarni asrash va rivojlantirish masalalari falsafiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Mazkur tadqiqot axborotlashgan jamiyat sharoitida insonning ma'naviy-axloqiy qiyofasini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotda tarixiylik va mantiqiylik, tizimli yondashuv, tahlil va sintez, shuningdek taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Ilmiy adabiyotlar va mavjud ma'lumotlar asosida induksiya va deduksiya usullari orqali umumlashtirilgan xulosalar chiqarildi. Tadqiqot natijalari obyektivlik va ilmiy xolislik tamoyillari asosida baholandi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Axborotlashgan jamiyat sharoitida esa ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan axloqsizlikni targ'ib qiluvchi axborotlar milliy ma'naviy qadriyatlarga jiddiy tahdid solmoqda. Ayniqsa, mobil texnologiyalar orqali behayo va inson qadrini kamsituvchi tasvirlarning ommalashuvi jamiyatda axloqiy muhitning zaiflashishiga olib kelmoqda. Mazkur holat axborotlashgan jamiyatda axloqiy me'yorlarni saqlash va mustahkamlashda ma'naviy kollaboratsiyaning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Davlat, oila, ta'lim muassasalari, OAV va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi uzviy hamkorlik yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoyalash va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning muhim sharti hisoblanadi.

Axborotlashgan jamiyat deb nomlanayotgan hozirgi XXI asrda axborot texnologiyalarining rivojlanishi barcha sohalarda ma'lumotlar olishda eng arzon va qulay vositaga aylandi. Internet tizimining rivojlanishi insoniyatni aqlbovar qilmas salbiy axborotlarga nisbatan kurash jarayonlarda yangicha ong va aql urushi turlarini shakllantiridi. Bugungi jamiyatimizdagi ba'zi bir insonlar axloqsizlikni o'zlari xush ko'rgan madaniyat deb bilishi, asl milliy-ma'naviy va diniy qadriyatlarimizga hurmatsizlik qilib, eskilik sarqiti deb biluvchilar ham borki

bular, ayniqsa, yoshlar tarbiyasiga ba'zan aqliraso insonlar hayotiga ham juda katta xavf tug'dirmoqda. Jamiyatda "tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan axborotlar bilan birgalikda yoshlar ongini chalg'itadigan, ularni salbiy harakatlarga yo'naltiradigan axborotlar ham tarqalmoqda. Ushbu holatni inobatga olgan holda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish ma'naviy merosni o'zlashtirish, ularni yangi g'oyalar bilan boyitib borish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash bilan birgalikda ularni bilimini davr talablari asosida yuksaltirish vazifalari kun tartibiga qo'yilmoqda. Ta'kidlash joizki axborotlashgan jamiyatida bilim va axborot jamiyat rivojlanishining asosiy manbai hisoblanadi"[2,7]. Ulardan samarali foydalanish axloqiy qadriyatlarni asrashda, jamiyatning ma'naviy intellektual mulki sifatida e'zozlashda dolzarb sanaladi.

Axborotlashgan jamiyatda tarqatilayotgan ma'lumotlarning kundan kun oshib borishi insonlar axloqiy ongiga o'z ta'sirini o'tkazib, voqelik borasidagi falsafiy qarashlarning muammolarini yechish uchun imkoniyatlarni maydonga chiqarmoqda. "Axborotlashtirish jarayonlari insoniyat taraqqiyotida muhim, hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Chunki tabiat bilan insoniyat jamiyati o'rtasida, shuningdek, insoniyat jamiyatining o'zida o'zaro axborot almashuvi mavjud bo'lmaganida u taraqqiy qilmagan va hozirgi mavjud kamolotiga erishmagan bo'lardi" [3,101].

Axborot jamiyatida doimo yuqori intellekt, aqliy kuch, nazariy va amaliy bilimlar yig'ilib, ishlatiladi. Shuning uchun har bir fuqaroda ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mustahkam axloqiy immunitetni shakllantirish, mavjud axloqiy qoidalarga rioya qilish zarur. Jamiyatdagi o'zgarishlarni o'rganayotganda, ularni hal qilish usullariga e'tibor berish kerak. Axborot jamiyati bu masalalarni o'rganishda birinchi navbatda tayyor dasturlar va yechimlar taklif qiladi, ikkinchi navbatda esa axloqiy qadriyatlarni himoya qilish uchun ijtimoiy muhit yaratadi, bu esa odamning immun tizimiga ta'sir qiladi. Lekin har bir inson bu jarayonda o'zining har qanday muammoga nisbatan mustahkam bilimi, aqliy imkoniyatlari bilan shoshmasdan, turli maqsadlarga moslashtirilgan axborotlarni mantiqiy tahlil etishi, axloqiy immunitetning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir qiluvchi

omillardan ogoh bo'lishi lozim. Bugun jamiyatda "salbiy axborotlarga nisbatan immunitetni rivojlantirishga qaratilgan ma'naviy treninglar dasturlarini ishlash, uning samaradorligini baholab borish kabi usullardan samarali foydalanish" [4,307] jamoatchilik orasida kengayib bormoqda.

Xalqimiz hayotida har bir davr o'zining buyuk daholari qoldirgan axloqiy qoidalarni e'zozlanishi, ularni kelajak avlodlarga o'rgatishi axborotlashgan jamiyat uchun muhimligi bilan xarakterlanadi. Ikkinchi muallim Abu Nasr Forobiy o'zining davlat boshqaruvi va uning xalqiga doir nasihatlarini bildirar ekan, odamlarni komillik sari chorlaydigan fikrlarni o'rta tashlaydi. "Inson barcha a'zolari solim, butun, mukammal ishlab turganida sog'lom bo'lganiday, barcha aholisi go'zal yaxshi hulqli, yaxshi ishlar va bir-biriga yordam beruvchi shahar ham fozil odamlar shahridir" [5,239], deydi. Demak, bunday shahar aholisi jamiyatda amal qiladigan qonun-qoidalariga so'zsiz itoat etishi, raiyat bilan birgalikda hukmdorning davlatni boshqarishini ko'rish mumkin. Bu esa, fuqarolar uchun o'ziga xos axloqiy idealni mujassam etadigan falsafiy tafakkur sohiblari jamiyatda mavjudligini, odamlarning inoq, axloq me'yorlariga birgalikda amal qilishini ko'rsatadi. Forobiyning qarashlari nafaqat aholi uchun balki, fuqaro yoxud davlatni boshqaradigan insonlar uchun zarurligi qayd etiladi. U "o'zida o'n ikki tug'ma xislatni birlashtirgan kishigina axloqli odam bo'la oladi"[6,286], deydi. Uning bu falsafiy qarashlari davlatni boshqarishga intiladigan har bir odam uchun muhimligi, bu axloqiy qoidalar fozil shahar ravnaqi uchun xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Har bir insonning faoliyatida ajdodlarning milliy qadriyatlariga singib ketgan halollik, rostgo'ylik, hayolilik, insoflilik, xushfe'llik, shirinsuxanlik, kamtarinlik, bosiqlik, xudbinlik va shuhratparastlik kabi axloqiy me'yorlar mavjudki, ulardan har kim turlicha o'z ijtimoiy hayotida foydalanadi. Ularning bugungi axborotlashgan jamiyatda o'ziga xos xususiyatlari xilma-xil bo'lib, har bir millatning ma'naviy olamini belgilab olishida, ichki mantiqiy xulosalarni falsafiy yo'llar bilan anglab yetishida xizmat qiladi.

Jamiyatda insonning yashashdan maqsadi, tugʻilganidan boshlab beriladigan tarbiyadagi muhim axloqiy meʼyor bu – halollikdir. Bu tushuncha insoniyat tarixining ilk davrlaridan boshlab bugungi kungacha ham oʻzining jamiyatdagi rolini mustahkamlab keladi. Chunki u avvalo har bir inson uchun kundalik faoliyatda isteʼmol qiinadigan oziq-ovqatdan tortib, butun turmush tarzi, yashashi bilan bogʻlanib ketgan nozik murvatlarni oʻzida aks ettiradi. Hattoki, har bir din oʻzining targʻibotida muhim axloqiy meʼyor sifatida halollikni oʻrtaga tashlaydi. “Har bir diniy eʼtiqodning asosida axloqiylik yotadi va u koʻp hollarda ibodatdan baland qoʻyilgan: soligʻ bandalar, “Qurʻon”da aytilganidek, eng avvalo goʻzal axloq egalaridir. Shu boisdan keyinchalik halollik nisbatan tor sharʼiy qobiqdan chiqib, asta-sekinlik bilan shaxs hayotidagi eng qamrovli axloqiy meʼyorga aylandi, teran maʼnaviylik kasb etgani holda, kundalik hayotdagi insoniylikni belgilaydigan umuminsoniy fazilat boʻlib qoldi” [7,283]. Ular bu tushunchaning aks boʻlgan haromdan barchaning tiyilishini, jamiyatning qoidalarini buzmaslikni, insonlarni barcha faoliyatida bu kategoriyaning lozimligini koʻrsatishadi.

Axborotlashgan jamiyatning axloqiy meʼyorlarga taʼsir koʻlami hayolilik va insoflilik kabilarda oʻzining mohiyatini yangicha tarzda namoyon etmoqda. Bu tushunchalar oʻzining inson ichki tuygʻulariga bogʻliq qirralari bilan har bir millat vakilining ijtimoiy ongida aks etadi. Hayoning insoniy mohiyati bevosita axloqiy hatti-harakatlarda oʻzligini namoyish etib, odamlar orasida biror-bir soʻzni notoʻgʻri aytib qoʻyishda yoki fikr bildirganda boshqalar oldida qizarishi, oʻzini noqulay sezishi kabilarda ifodalanadi. Hayolilik oʻzbek xalqida koʻproq ayollarga xos axloqiy meʼyor sifatida talqin etiladi. “Ayollarimizning hayoli boʻlishiga bois erkaklarimizning ulardan hayoli boʻlishni talab qilishidir”[8,27]. Bunday axloqiy meʼyor axborotlashgan jamiyatda baʼzida oʻzining qiyofasini oʻzgartirishga intilayotganligi, ayrim qizlarning yurish-turishda, odamlar bilan muomalasida namoyon boʻlayotganligini ham koʻrishimiz mumkin. Jamiyatda hayoli inson bevosita oʻzining insofliligi bilan ham barchaning koʻz oʻngida oʻzining axloqiy darajasini namoyish etadi. Bu esa, “insofli inson” degan ibora orqali xalqning orasida ataladi. Shuning uchun har bir faoliyatda insonning fikr bilan, oʻylab insof

doirasida ish tutishi, boshqalarning ko'ngliga ozor yetkazmasligi hamisha zarur sanaladi.

Axborotlashgan jamiyat insonning ongida borliqqa nisbatan ijtimoiy ruhiyatning namoyon bo'lishida xushfe'llik, shirinsuxanlik, kamatrinlik, bosiqlik singari axloqiy me'yorlar mavjudki, ulardan foydalanishda har bir shaxs o'zining hatti-harakatlari bilan boshqalarga o'rnak bo'ladi. Bu tushunchalar zahirida inson ichki dunyosida shakllangan yuksak ma'naviyat, muayyan darajada diniy va dunyoviy ilmlarni egallaganlik turadi. Xalqimiz azaldan bir-birlari bilan doimo xushfe'llik bilan muomala qilishga, o'zining qadr-qimmatini va sha'nini asrashga intilib, odamlar orasida shirinsuxan bo'lishga intiladi. Buning negizida hayotga bo'lgan axloqiy munosabatlar tartiblashadi va voqelikda inson o'z ixtiyori bilan bosiqlik asosida o'zligini namoyon etib boradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion and Recommendations)

Tarixiy taraqqiyot jarayoni shuni ko'rsatadiki, inson faoliyati doimo ma'naviy-axloqiy me'yorlarga tayanib rivojlanib kelgan bo'lib, jamiyat esa uzluksiz ravishda yangilanib borayotgan axborot oqimiga intilib yashaydi. Insonlar axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish jarayonida yangi bilim va ma'lumotlarni o'zlashtirib, ularni mavjud axloqiy qadriyatlar bilan uyg'un holda tahlil qilib boradilar. Natijada jamiyatning ma'naviy-axloqiy hayoti doimiy ravishda ijobiy va salbiy omillar ta'sirida o'zgarib turuvchi murakkab jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Axborotlashgan jamiyat sharoitida ma'naviyat va axloq ijtimoiy taraqqiyotning barcha davrlarida muhim omil bo'lib kelgan va hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, globallashtirish va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida insonning ma'naviy-axloqiy qiyofasi turli madaniyatlar va axborot manbalari ta'siri ostida shakllanmoqda. Jamiyatda axloqiy me'yor va qadriyatlarga mos axborotni tanlash hamda ularni tartibga solishda zamonaviy texnologiyalarning o'rnini tobora ortib bormoqda, virtual muloqot esa ijtimoiy munosabatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois virtual makondagi muloqotning axloqiy xususiyatlarini hisobga olmasdan

turib, ta'lim va tarbiya tizimida yuzaga kelayotgan muammolarni to'liq anglash mushkul.

Mazkur jarayonda insonning ijtimoiy hayotda komillikka intilishi, bilim va ma'rifatga asoslangan axloqiy me'yorlarga amal qilishi hamda ularni zamon talablariga mos ravishda takomillashtirib borishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan, ta'lim-tarbiya tizimida axborot madaniyati va axloqiy mas'uliyatni oshirishga qaratilgan mexanizmlarni kuchaytirish, yosh avlodda tanqidiy fikrlash va axborotni ongli ravishda saralash ko'nikmalarini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-tom. –Toshkent: O'zbekiston, 2018. - 508 b.
2. G'ulomov S., Shermuhamedov A., Begalov B. Axborotlashgan jamiyatning mujassamlanishi // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. – Toshkent: 1999. Yanvar – fevral. – B. 7.
3. Abdullayeva M. va boshqalar. Milliy g'oya va fanning metodologik muammolari. –Toshkent: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2009. - 101 b.
4. Jabborov XX. Yoshlarda tahdidlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllantirishning ta'sirchan psixologik uslublari // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. 2021. №5. –B.307.
5. Forobiy Abu Nasr Fozil odamlar shahri. Abu Nasr Forobiy / Tarjimonlar Abdusodiq Irisov, Markam Maxmudov, Urfon Otajon. Mas'ul muharrirlar M.Xayrullayev, M.Jakbarov. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. - 320 b.
6. Sher A. Axloqshunoslik. –Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti. 2010. – 328 b.
7. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo'rayev N. Vatan tuyg'usi. –Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 397 b.